

HAFIZA QO‘CHQAROVANING “MAKON ISTAB” ASARI VA JENNI ERPENBEKNING “HEIMSUCHUNG” ROMANIDA “VATAN” KONSEPTINING MADANIY-SEMANTIK TAHLILI

*Hayotova Dilafro‘z Zoyirovna,
Nemis filologiyasi kafedrası katta o‘qituvchisi
d.z.hayotova@buxdu.uz*

Annotatsiya. Mazkur maqolada zamonaviy nemis yozuvchisi Jenni Erpenbekning *Heimsuchung* (“*Makon istab*”) romanida “vatan” konseptining lingvokulturologik talqini tahlil qilinadi. Asarda “vatan” tushunchasining nemis (*Heimat*) va o‘zbek (*vatan, yurt, makon, uy, zamin, o‘lka*) tillaridagi ekvivalentlari semantik, madaniy va psixo-emotsional qirralar nuqtai nazaridan qiyosiy o‘rganilgan. Tadqiqot jarayonida original matn va o‘zbekcha tarjima variantida konseptning qo‘llanish chastotasi aniqlanib, leksik birliklarning madaniy konnotatsiyasi, semantik kengayishi va hissiy bo‘yoqlari tahlil qilingan. Maqolada “vatan” ning nafaqat geografik hudud, balki shaxsiy makon, bolalik xotiralari, milliy identitet, oilaviy qadriyatlar va ruhiy qo‘nim timsoli sifatidagi talqinlari ochib berilgan. Tadqiqot natijalari “vatan” konseptining ikki madaniyat va til kontekstida turlicha semantik yuk va madaniy mazmun kasb etishini, tarjimada esa milliy madaniyatga moslashtirish jarayoni sodir bo‘lishini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: *Heimat, yurt, uy, makon, zamin, o‘lka, lingvokulturologiya, madaniy konnotatsiya, milliy identitet, tarjima nazariyasi, qiyosiy tahlil, semantik maydon, psixo-emotsional makon, bolalik xotiralari, metafora, ramz, badiiy obraz, madaniyatlararo kommunikatsiya, tarjimada moslashtirish, madaniy xotira.*

КУЛЬТУРНО-СЕМАНТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ КОНЦЕПТА «РОДИНА» В ПРОИЗВЕДЕНИИ ХАФИЗЫ КУЧКАРОВОЙ «ХОЧУ МЕСТО» И РОМАНЕ ДЖЕННИ ЭРПЕНБЕК «ПРИЖИМОСТЬ»

Аннотация. В данной статье анализируется лингвокультурологическая интерпретация концепта «родина» в романе современной немецкой писательницы Дженни Эрпенбек *Heimsuchung* («*Макон истаб*»). Эквиваленты понятия «родина» в немецком (*Heimat*) и узбекском (*vatan, yurt, makon, uy, zamin, o‘lka*) языках сопоставляются с точки зрения семантических, культурных и психо-эмоциональных аспектов. В процессе исследования определена частотность употребления концепта в оригинальном тексте и в узбекском переводе, а также проанализированы культурная коннотация, семантическое расширение и эмоциональная окраска лексических единиц. В статье раскрываются интерпретации «родины» не только как географического пространства, но и как личного пространства, детских воспоминаний, национальной идентичности, семейных ценностей и духовной опоры. Результаты исследования показывают, что концепт «родина» в контексте двух культур и языков приобретает различную семантическую нагрузку и культурное содержание, а в переводе происходит адаптация к национальной культуре.

Ключевые слова: *родина, родина, дом, место, пространство, земля, почва, край, регион лингвокультурология, культурная, коннотация, национальная идентичность, теория перевода, сопоставительный анализ, семантическое поле, психо-эмоциональное пространство, детские воспоминания, метафора, символ, художественный образ, межкультурная коммуникация, адаптация в переводе, культурная память.*

CULTURAL-SEMANTIC ANALYSIS OF THE CONCEPT OF "MOTHERLAND" IN HAFIZA KUCHKAROVA'S WORK "WANT A PLACE" AND JENNY ERPENBECK'S NOVEL "HEIMSUCHUNG"

Abstract. This article analyzes the linguocultural interpretation of the concept of “homeland” in the novel *Heimsuchung* (“*Makon istab*”) by the contemporary German writer Jenny Erpenbeck. The equivalents of the concept “homeland” in German (*Heimat*) and Uzbek (*vatan, yurt, makon, uy, zamin, o‘lka*) are compared in terms of their semantic, cultural, and psycho-emotional dimensions. The study identifies the frequency of the concept’s usage in the original text and its Uzbek translation, and examines the cultural connotations, semantic expansion, and emotional coloring of the lexical units. The article reveals interpretations of “homeland” not only as a geographical territory, but also as a personal space, a repository

of childhood memories, national identity, family values, and spiritual grounding. The findings demonstrate that the concept of “homeland” carries different semantic loads and cultural meanings in the context of the two languages and cultures, and that translation involves adaptation to the national cultural framework.

Keywords: homeland, homeland, home, place, earth, region, linguoculturology, cultural connotation, national identity, translation theory, comparative analysis, semantic field, psycho-emotional space, childhood memories, metaphor, symbol, literary image, intercultural communication, cultural adaptation in translation, cultural memory.

Kirish. Germaniyaning poytaxti Berlin shahrida tug‘ilgan nemis yozuvchisi va dramaturgi Jenni Erpenbekning “Heimsuchung” (*Makon istab*) romanida “vatan” konseptining o‘ziga xos badiiy ifodasi tahlil qilinadi. Jenni Erpenbek tomonidan yozilgan “Heimsuchung” (*Makon istab*, 2008), “*Visitation*” (*Tashrif*, 2021), “*The End of Days*” (*So‘nggi kunlar*, 2014) kabi asarlar xalqaro adabiy hamjamiyatda, xususan, kitobxonlar va tarjimonlar orasida keng e‘tibor qozongan.


Zamonaviy yozuvchi sifatida Jenni Erpenbekning barcha asarlari inson hayoti, tarixiy jarayonlar, shaxslararo munosabatlar, shuningdek, inson psixologiyasi va mavjudlik masalalarini chuqur tahlil etishga qaratilgan. U asarlarida psixologik, tarixiy va falsafiy yo‘nalishlarni o‘zaro uyg‘unlashtirib, insonning hayotiy tajribalari va ichki ziddiyatlarini badiiy talqin etadi. Adiba o‘z asarlarida inson xarakteri, hayoti va ruhiy holatlari, yashashdagi qiyinchiliklar, shuningdek, jamiyat va shaxs o‘rtasidagi murakkab munosabatlarni tahliliy va badiiy jihatdan yoritishga alohida e‘tibor qaratadi.


Tadqiqot materiallari va metodologiyasi. Jenni Erpenbekning eng mashhur asarlaridan biri – “Heimsuchung” (*Makon istab*) bo‘lib, unda tarixiy jarayonlar, shaxsning ichki dunyosi, yashashdagi izlanishlari hamda yashashni muayyan joy va vaqt bilan bog‘lashga intilishlari haqida so‘z boradi. Yozuvchining mazkur romanida shaxs va millat o‘rtasidagi bog‘liqliklar, shaxsning oilaga bo‘lgan munosabatlari yoritilganligini ko‘rish mumkin. Ushbu “Heimsuchung” (*Makon istab*) romanida “vatan” konseptining ikki noqardosh til – nemis va o‘zbek tillarida ifodalanish xususiyatlarini tahlil qilar ekanmiz, 2011-yilda o‘zbek tarjimoni Hafiza Qo‘chqorova tomonidan Jenni Erpenbekning “Heimsuchung” (*Makon istab*) asarining o‘zbek tilidagi tarjimasidan foydalandik. Shu bilan birga, asarda konseptning o‘ta murakkab va ko‘p qirrali bir tushuncha sifatida qo‘llanilganligi, shuningdek, “vatan” ma‘nosining nafaqat geografik nuqtai nazardan, balki shaxsiy va psixo-emotsional jihatlari ham tasvirlanganligi aniqlandi.

Biz romanning asl nemis tili varianti hamda o‘zbek tili tarjima variantida qator “vatan” konseptining turli ma‘nolar bilan ifodalanganligini tahlilga tortdik.

Masalan, Jenni Erpenbekning “Heimsuchung (*Makon istab*)” asarida **Haus** ya‘ni **uy** so‘zi 267 marta, original nemis tilidagi asarda esa **Haus** 192 marta, **Heimat** so‘zi 20 marta, tarjima variantida Vatan so‘zi 23 marta, **makon** so‘zi 33 marotaba, tarjima asarda esa **Ort** so‘zi 8 marta ishlatilganligi, shuningdek, tarjima asarda **yurt** so‘zi 20 marta kelgan bo‘lsa, original asarda **Daheim** (**uyda Vatanida**) 12 marta berilganligini guvohi bo‘ldik. Shu bilan birga original asarda **Dorf** (**qishloq**) so‘zi 52 marta, tarjima asarda **qishloq** so‘zi 47 marta, **Zamin** so‘zi tarjima asarda 7 marta kelgan, original asarda bu so‘z **Scholle** so‘zi bilan 5 marta ona yer ma‘nosini kelganligini aytish mumkin. Bundan tashqari **Hudud** so‘zi tarjima asarda 16 marta berilgan bo‘lsa, original asarda **hudud** ma‘nosi **Gebiet** so‘zi bilan 3 marta, **Zone** ma‘nosida esa 2 marta (**Region** va **Territorium** so‘zlari ishlatilmagan) qo‘llanilgan.

Tadqiqot natijalari va muhokama. “Heimsuchung (*Makon istab*)” asarida “vatan” konseptining turli ma‘nolarda bilan ifodalanganligini tahlil qilganda, ma‘nolari o‘zgarib, madaniy, emotsional va tarixiy yo‘nalishlarda ifodalangan bo‘lsada mazmun saqlanganligini hamda mohiyatan Vatan semasini takrorlaganligini aytish mumkin:





№		Nemischa	O'zbekcha
1.	“Vatan” konseptining asl matn hamda tarjima matnidagi o'zga xosliklari	Heimat planen , das ist sein Beruf. Vier Wände um ein Stück Luft, ein Stück Luft sich mit steinerner Krallen aus allem, was wächst und wabert, herausreißen, und dingfest machen. Heimat. Ein Haus die dritte Haut, nach der Haut aus Fleisch und der Kleidung. Heimstatt. Ein Haus maßschneidern nach den Bedürfnissen seines Herrn. (Jenny Erpenbeck <i>Heimsuchung.</i> – S.28)	Uning kasbi – Vatanni rejalashtirish. Vatan – aslida uy , uning kasbi shu – ikkalasi. Bir hovuch havo girdida to'rt devor tikkalash, bir hovuchgina havoni toshdek mustahkam to'sinlar bilan, ichida nima bo'lsa, hamma narsasi bilan to'sish, o'rab qo'yish, bir so'z bilan aytganda o'ziniki qilish, o'z makoniga aylantirish, bir hovuch havoni tuproqqa qo'shib, MAKON yaratish, o'sha makonga o'zini qo'shish, o'zi ishtirokida atrofida olam yaratish – uning kasbi. (“Makon istab” Roman, 2011, Verlag „Nihol“-33 B)

Ushbu mikro tekstda “Heimat” (vatan) konsepti insonning shaxsiy va ichki dunyosi bilan bog'liq bo'lgan ramz sifatida talqin qilinadi. “Heimat” (vatan) faqat geografik yoki davlat tushunchasi sifatida emas, balki shaxsiy *makon* va *uy* ma'nosida tasvirlanadi. Shuningdek, ushbu talqinda bir nechta asosiy g'oyalar o'z aksini topgan:

Vatan uy kabi shaxsiy va qulay *makon* sifatida tasvirlangan;

Uy insonning “uchinchi tanasi” bo'lib, go'sht va kiyimdan keyingi o'rinda kelgan;

Vatanda yashashni rejalashtirish va uni shakllantirish jarayoni *uy* qurilishi bilan chambarchas bog'liq holda bo'lishi ta'kidlangan.

Natijada, vatan insonning shaxsiy ehtiyojlari va dunyoqarashi bilan ajralmas, birlashgan joyga aylanib, matnda makonni yaratish jarayonida insonning roli alohida ta'kidlanadi. Insonning “bir hovuch havo”ni tuproq va moddiy vositalar yordamida uyga aylantirishi, uni “o'ziga moslashtirishi” va atrof-muhitni o'z ehtiyojlariga moslashtirish qobiliyati ta'kidlanadi. Shu tariqa, vatan moddiy va ma'naviy makonning uyg'unlashuv ramziga aylanadi.

Vatanning shaxsiy makon sifatida talqin qilinishi insonning unga bo'lgan individual munosabatini yoritadi. Vatan keng va umumiy tushuncha bo'lishiga qaramay, har bir inson uni o'zicha his qiladi va shakllantiradi. Shu bilan birga, bu shaxsiy makon ijtimoiy hayotning bir qismi sifatida tasvirlanadi, chunki inson uyida nafaqat o'zi uchun, balki oila, mehmonlar va jamiyat uchun ham makon yaratadi.

Matnda yog'och, tosh va somon kabi moddiy materiallar tilga olinsa-da, qurilish jarayoni ma'naviy jihatdan ham tasvirlanadi. Uy qurilishi faqat moddiy emas, balki makonni shakllantirishga qaratilgan ruhiy akt sifatida ham qaraladi. Shu ma'noda, vatan moddiy va ma'naviy elementlarning uyg'un garmoniyasi sifatida talqin qilinadi.

Matnda “Heimat” (vatan) tushunchasi shaxsiy makon sifatida, uy timsolida talqin etilgan. Vatan shakllantirish jarayoni insonning moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini integratsiyalash hamda uning individual makonini konstruksiya qilish jarayoni sifatida taqdim etiladi. Shu bilan birga, vatan shaxsiy makon va jamiyatning umumiy kontseptsiyasi o'rtasidagi o'zaro aloqani aks ettiruvchi ko'zgudek namoyon bo'ladi.

Xuddi shunga o'xshash navbatdagi misolga e'tiborni qaratsak: “Mana shu bir parcha yer, uy va dengiz uning MAKONi bo'lmaganida edi, uni hech narsa, hech qachon sharq (sharqiy Berlin)da ushlab turmasdi. Endi esa uning vatani, Makoni uni halokatga olib keldi: u urush so'ngida Berlinda ruslar bilan besh kun ertadan kechgacha hunarmandchilik ustaxonasidagi uskunalarini shu yerda olib qolish uchun muzokara olib borib, mayxo'rlik qilgandi.”

“Wären die Scholle, das Haus und der See nicht seine Heimat, hätte es ihn niemals in der Ostzone gehalten. [1.30]. Jetzt wurde ihm die Heimat zur Falle. Er hatte am Ende des Krieges mit den Russen in Berlin fünf Nächte lang verhandelt und gesoffen, um den Abtransport der Maschinen aus seinem Tischlerbetrieb in Berlin zu verhindern”.

N ^o		Nemischa	O'zbekcha
	“Vatan” konseptining asl matn hamda tarjima matnidagi o'zga xosliklari	Wären die Scholle , das Haus und der See nicht seine Heimat , hätte es ihn niemals in der Ostzone gehalten. Jetzt wurde ihm die Heimat zur Falle..... Jenny Erpenbeck Heimsuchung. – S.28)	Mana shu bir parcha yer, uy va dengiz uning MAKONI bo'lganida edi, uni hech narsa, hech qachon sharq (sharqiy Berlin)da ushlab turmasdi. Endi esa uning Vatani , ... (“Makon istab” Roman, 2011, Verlag „Nihol“-33 B)



“Heimat” so‘zi o‘zining asosiy ma‘nosida “Vatan”, “tug‘ilgan joy” yoki “ona yer”ni anglatadi. Bu so‘z nemis tilida xuddi o‘zbek tilidagidek kuchli hissiy bo‘yoqqa ega bo‘lib, uning semantikasi xavfsizlik, doimiylik va tegishlilik kabi tushunchalar bilan bog‘liq. Matnda “Scholle” (“yer”; “qadrli yer”), “Haus” (“uy”) va “See” (“ko‘l”) kabi so‘zlar “Heimat”ni konkretlashtiradi va uni shaxsning hayotiy makoni sifatida tasvirlaydi. Nemis madaniyatida “Heimat” faqat geografik joy emas, balki insonning ichki dunyosi, oilaviy qadriyatlar va milliy identitetni ifodalovchi tushuncha sifatida qaraladi. Shu bilan birga, “Heimat” ning madaniy konnotatsiyasi qahramonning o‘z mulkini saqlab qolish uchun qilgan harakatlarida namoyon bo‘lmoqda. Bu madaniy jihatdan o‘z vataniga, o‘z yeriga va ajdodlariga sodiqlik hamda o‘zini jamiyatning bir qismi sifatida his qilayotganini ko‘rsatadi.

Nemis tilidagi “Heimat” tushunchasi boshqa tillardagi “vatan” tushunchalaridan (masalan, o‘zbek tilidagi “vatan” yoki “ona yer”) farqlanadi. Nemis madaniyatida “Heimat” ko‘pincha individual hayot makoni va shaxsiy tarix bilan bog‘liq bo‘lgan aniq joyni anglatadi. O‘zbek tilida esa “vatan” ko‘proq umumiy, milliy darajadagi tushunchani ifodalaydi, bu esa milliy birlik va g‘urur bilan chambarchas bog‘liqdir.

Bu mikromatndan ko‘rinadiki, “Heimat” – bu shunchaki joy emas, balki milliy-madaniy, tarixiy va individual identitetning ajralmas qismidir. Uning tildagi ifodalanishi va konnotatsiyalari insonning madaniy qarashlari, hissiy dunyosi va ijtimoiy tajribasi bilan chambarchas bog‘liq. Bundan tashqari, ushbu tushuncha nemis tilida alohida o‘ringa ega bo‘lib, xalqning madaniy xotirasi va o‘zligini anglashini ifodalaydi.

“Ja und Nein. Hoffentlich waren die Wüsten in Afrika, die Urwälder in China groß genug, damit sein Nein dort verhungerte, verdurstete, von den wilden Tieren gefressen wurde. Sind Sie arischer Abstammung? Ja. Aber warum muß er denn dann jetzt gehen? Baron Münchhausen hat sich am eigenen Zopf aus dem Sumpf gezogen. Aber der Sumpf war ja nicht seine Heimat. Viel weniger weiß der Architekt, als er einmal wußte [2,95].

Aber der Sumpf war ja nicht seine Heimat

Unsicherheit, moralische Verstrickungen

keine Stabilität oder Zugehörigkeit

innere Verbundenheit und Identifikation

die Entfremdung

Mazkur jumla qisqa bo'lsa-da, "vatan" tushunchasi atrofida chuqur falsafiy, madaniy va psixologik mulohazalarni yuzaga keltirib, bu iborani ilmiy nuqtai nazardan tahlil qilishda lingvistik, madaniy, psixologik, ijtimoiy va falsafiy aspektlarni ko'rib chiqish zaruratini keltirib chiqarmoqda.

Ma'lumki, botqoq bu murakkab, noaniq va xavfli holatlarni ifodalovchi universal metafora, axloqiy betartiblik, qochishning yoki mustaqil qaror qabul qilishning imkonsizligi ramzi bo'lib xizmat qiladi. Shu bilan birga, botqoqni jismoniy makon sifatida ham talqin qilish ham mumkin, bu qahramonning Vatan tushunchasiga zid keluvchi fazilatlarni ifodalaydi: Vatan odatda barqarorlik bilan bog'liq bo'lsa, botqoq bu xususiyatga ega emas: Botqoq insonni o'z ichiga tortib, erkinligini cheklaydi, vatan esa erkinlik va tegishlilik manbai bo'lib xizmat qiladi. Botqoq metaforasi orqali vatan tushunchasining chegaralari va insonning unga bo'lgan hissiy-axloqiy munosabati ochib beriladi.

"Dort, wo er zu Hause war, gab es so etwas nicht. Es ist, als hätte die Kindheit zusammen mit der Heimat aufgehört. Dort, wo seine Heimat war, trugen die Mädchen auf dem Schulweg zwei Zöpfe oder Affenschaukeln mit großen rotseidenen Schleifen und ein dreieckiges Halstuch" [3, 56].

Heimat (Vatan) tushunchasi bolalik, tinchlik va beg'uborlik bilan chambarchas bog'liq holda tasvirlanadi. Ushbu tahlilda Heimatning hissiy, madaniy va psixologik jihatlari keng tasvirlangan. Matnning birinchi jumlasida *"Es ist, als hätte die Kindheit zusammen mit der Heimat aufgehört"* (Go'yo bolalik Vatan bilan birga tugagandek) shuni ko'rsatadiki, Heimat nafaqat geografik joy, balki insonning hissiy dunyosidagi muhim bosqichlarni o'zida mujassam etgan "Makon" ekanligi tasvirlangan.

Bolalik davri inson uchun tinchlik va xavfsizlik ramzi bo'lsa, Vatan ham bu fazilatlarni o'zida mujassam etganligi hamda bolalikning tugashi Vatan tushunchasi bilan uzviy bog'langan bo'lib, bu inson o'zligini anglashda muhim rol o'ynashini ko'rish mumkin. Heimat nafaqat joy, balki vaqt va o'sha davrning hissiy xotiralarini ifodalovchi tushuncha sifatida ifodalangan. Matnda *"Die Mädchen trugen zwei Zöpfe oder Affenschaukeln mit großen rotseidenen Schleifen"* (Qizlar ikkita soch o'rimini yoki katta qizil ipak bantlar bilan arqonlar qilib yurishardi) degan jumla Heimatni madaniy dominantlar orqali tasvirlaganligini aytish mumkin:

Matnda qizlarning soch o'rimlari va qizil ipak bantlar (iplar) aniq va jonli tasvirlanib, bu Heimatning madaniy va estetik jihatlarini ko'rsatmoqda. Va shu kabi tasvirlar Heimatning bolalikdagi oddiy va beg'ubor hayoti bilan uzviy bog'liq ekanligini anglatadi. Aynan shu jihatda yakuniy fikr sifatida aytishimiz mumkinki, "Heimat" tushunchasini bolalik, milliy-madaniyat va his-tuyg'u, unitilmas xotiralar bilan bog'laydi. Heimat nafaqat geografik joy, balki bolalikdagi beg'uborlik, soddalik, oddiylik va xavfsizlikning timsoli sifatida tasvirlangan. Ushbu tahlil Heimatning murakkab va ko'p qirrali keng tushuncha ekanligini, uning inson identitetidagi(shaxsiyat) muhim o'rin egallashini bildiradi.


"Ich will heim, nur heim, das hatte sie damals selbst oft gedacht, und ihr Maschinengewehrfeuer vom Ural aus Wort für Wort auf die Heimat gerichtet. Aber ihr, der kein Land mehr, sondern die Menschheit die Heimat sein sollte, blieb der Zweifel für immer als Heimweh" [4,83-84].

Matnda "Heimat" keng qamrovli tushuncha sifatida keltirilgan. Dastlabki jumla "Heimat"ni oddiy makon sifatida tasvirlaydi: „*Ich will heim, nur heim*“. Bu jumlada Vatan so'zi insonning tug'ilgan joyiga yoki tarixiy Vataniga qaytish istagini ya'ni o'zining kelib chiqish manziliga qaytish niyatini ifodalab kelgan.

"Aber ihr, der kein Land mehr, sondern die Menschheit die Heimat sein sollte" iborasida "Heimat"ning ayni yashab turgan joydan kengroq tushunchani anglatib kelganligini tasvirlangan. "Heimat" ya'ni Vatan tushunchasi endi aniq bir hudud emas, balki butun insoniyatni qamrab oluvchi konseptga aylangan. Bu Vatanni shunchaki yashab turgan joyi yoki hududi emas, balki, ijtimoiy va axloqiy makon sifatida anglash imkonini bermogda. Matnda Vatan nafaqat yashash manzili, balki insonning mavjudligi, axloqiy qadriyatlari va hissiy xotiralar uchun asos bo'lgan murakkab tushuncha sifatida tasvirlangan. Urush va zo'ravonlik Vatanni ma'naviy va madaniy asoslarini zaiflashtirgan. Vatanning umumiy insoniyat darajasiga kengayishi hissiy va axloqiy bo'shliqni to'ldira olmagan. Ushbu sabablar tufayli "Heimat" murakkab, o'zgaruvchan va oxir-oqibat erishib bo'lmaydigan tushuncha sifatida ifodalanganligi namoyon bo'ladi.

Tahlilni davom etar ekanmiz, yuqorida statistikada aytib o'tib ketganimizdek, asarda "Yurt" so'zi 20 marta qo'llanilgan:

Von da an war er immer in der vordersten Linie gewesen, und irgendwann aus dem Vertreiben ein Einnehmen geworden, und aus der Verteidigung der Heimat ein Wüten in der Fremde, die er sonst sicher niemals in seinem Leben betreten hätte." [5.59]. (Shundan beri yigit qachonlardir xo'rlanganini unutilmasdi, Vatanning, makonning himoyasi uchun o'zi nafratlanagan, umrida kela olmaydigan begona yurtlarda yuribdi.)



Yuqorida berilgan matnda "yurt" tushunchasi shaxsning ichki dunyosi, ijtimoiy mavqei va madaniy o'zligi bilan bog'liq holda talqin qilingan. Yurt nafaqat jismoniy hudud, balki ma'naviy va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash manbai sifatida ham tasvirlanadi. Bundan tashqari, "yurt"ning "begona yurtlar" bilan taqqoslanishi uning qadri va shaxs hayotidagi o'rnini yanada kuchaytiradi. Bu tushuncha inson hayotidagi ma'naviy qo'nim topish, madaniy o'zlik va jamiyat bilan uzviylikni anglatuvchi asosiy element sifatida namoyon bo'lmoqda.

"Shundan beri u xonada yolg'iz qolsa shkaf eshigini ochadi-da, beixtiyor yuzini bir muddat paltoga bosib turadi, balki barcha yurt onalarning hidi bir xildir..." [6,73].


Matnda Vatan ona timsoli bilan chambarchas bog'langan. "Ona hidi" Vatanni shaxsning asl ildizi va uning ma'naviy qo'nim topish joyi sifatida talqin etishga yo'l ochadi. Ona timsoli mehr, tinchlik va himoya hissini uyg'otadi. Bu esa Vatan tushunchasining ma'naviy qirrasini yanada kuchaytiradi.

"Es ist, als hätte die Kindheit zusammen mit der Heimat aufgehört. Dort, wo seine Heimat war, trugen die Mädchen auf dem Schulweg zwei Zöpfe oder Affenschaukeln mit großen rotseidenen Schleifen und ein dreieckiges Halstuch. Sie hielten beim Gehen den Kopf auf eine Weise erhoben, wie er es hier in Deutschland noch bei keiner Frau gesehen hat, so, als sei alles von ihnen genommen, was sie beugen könnte".

Tahlil matni Vatanni bolalik bilan chambarchas bog'langan makon sifatida tasvirlaydi. "Go'yo bolalik Vatan bilan birga tugagandek" iborasi shaxs uchun bolalik va Vatan bir butun makon sifatida qabul qilinishini anglatadi. Vatan faqat geografik hudud emas, balki shaxsning xotiralari va ruhiy osoyishtaligi bilan bog'liq makon sifatida yoritilgan.

"Yurt" so'zi matnda shaxsning bolalik davri bilan chambarchas bog'langan tushuncha sifatida qo'llangan. Bu yerda yurt moddiy joy emas, balki o'sha davrning yorqin madaniy xususiyatlari, urf-odatlar va ko'rinishlari bilan mushtarakligini ko'rish mumkin. "Uning yurtida" iborasi orqali yurt shaxsga tegishli makon sifatida tasvirlanadi, bu esa shaxsiy mansublik hissini kuchaytiradi.

"Yurt" so'zi "qizlar sochlarini ikkita qilib o'rib olishadi", "qizil bog'ich boylaydilar" kabi tasvirlar bilan bog'lanib, bolalikning madaniy shakllanish makoni bo'lib xizmat qilganini anglatadi. Matnda "yurt" shaxsning bolalik va yoshlik xotiralari, milliy madaniyati hamda o'zlik hissini bilan bog'liq teran ma'naviy tushuncha sifatida talqin qilingan. Shuningdek, yurt shaxs uchun milliy o'zlik va jamoaviy mansublik ramzi sifatida namoyon bo'ladi.



"I-c-h k-e-h-r-e h-e-i-m. Nein, sie und ihr Mann sind nicht nach Deutschland heimgekehrt, sondern sie wollten dies Land, und es war nur zufällig das, dessen Sprache sie sprachen, heimholen in ihre Gedanken"

"M-e-n u-y-g-a q-a-y-t-a-ya-p-m-a-n!" Yo'q, u va eri Germaniya atalmish

yurtga – o'z uylariga shunchaki emas, balki o'zga mamlakat tilida gapirishlari tasodifi va o'y-fikrlarini ham olib qaytayaptilar

"Yo'q, u va eri Germaniya atalmish yurtga – o'z uylariga shunchaki emas" jumlasida Vatan tushunchasining jamoaviy va shaxsiy qirralarini ochib beradi. Yurt shaxs uchun keng ma'noda madaniy va jamoaviy mansublikni ifodalasa, uy uning shaxsiy va jismoniy makonini belgilaydi. Bu gapda yurt va uyning ziddiyatli, biroq o'zaro bog'liq munosabati yoritiladi. Yurt keng jamoaviylikni aks ettirsa, uy shaxsning shaxsiylik va o'zligini anglatuvchi manba sifatida namoyon bo'ladi. Gapdagi tire yurt va uy o'rtasidagi bog'liqlikni bir vaqtning o'zida tenglashtirish va ajratish vositasi sifatida xizmat qiladi. Bu orqali yurt tushunchasi kengroq talqin qilinishga undaydi.

"Der Löwenzahn ist der gleiche wie zu Hause, und auch die Lerchen"

"Momaqaymoqlar ham xuddi uning yurtidagidek va hatto so'fito'rg'aylar ham" gapi orqali yurt tushunchasi tabiat, xotiralar va hissiy bog'liqlik orqali talqin qilingan. Yurt nafaqat jismoniy makon, balki shaxsning tabiat orqali yaratgan ma'naviy muhiti sifatida namoyon bo'ladi. Tabiat elementlari inson uchun yurtni anglatuvchi ramz bo'lib xizmat qiladi, bu esa shaxsning yurt bilan bo'lgan ruhiy bog'liqligini yanada chuqurlashtiradi. Gapda yurtning moddiy va ma'naviy jihatlari uyg'unlashgan holda tasvirlangan. Tarjimon nemis tilida uy ma'nosini beruvchi so'zni o'zbek tiliga tarjima qilganda yurt so'zi bilan bergan va bu Vatan, yurt konseptini yanada kuchaytirgan.

Tarjima asarda uy so'zi 267 marta, original nemis tilidagi asarda 192 marta ishlatilgan.

Ein Haus die dritte Haut, nach der Haut aus Fleisch und der Kleidung. Heimstatt.

Uy – insonning uchinchi jismi, tanadagi go'sht va kiyimdan keyin degan ibora orqali uy tushunchasi nafaqat jismoniy makon sifatida, balki insonning ma'naviy va shaxsiy dunyosi bilan bog'liq holda talqin qilingan. Uy inson uchun nafaqat yashash joyi, balki shaxsiy himoya va tinchlik ramzi, Vatanning shaxsiy ifodasi sifatida namoyon bo'ladi. Uyning Vatan mafkurasi bilan bog'liqligi uni shaxsning shaxsiy va jamoaviy identifikasiyasining ajralmas qismiga aylantiradi. Bu tushuncha uyni nafaqat shaxsiy, balki umumiy Vatanning kichik modeli sifatida qabul qilishga asos yaratadi.



“Wer baut, klebt nun einmal sein Leben an die Erde. Dem Bleiben einen Körper zu geben, ist sein Beruf. Ein Inneres schaffen. Dort ,wo nichts ist, immer tiefer aushöhlen”.
(Kimki uy qursa, o‘zining hayotini zaminga bog‘lagan bo‘ladi. Tanaga ham shu tarzda MAKON yaratish – uning qismati)

Uy qurish jarayoni insonning moddiy va ruhiy ehtiyojlarini aks ettiradi. Inson o‘z uyini qurib, o‘z hayotini muayyan makonga bog‘lab, bu dunyodagi joyini mustahkamlaydi. Bu, insonning muayyan bir hududga bo‘lgan tegishlilik hissi va unda o‘zligini anglash bilan bog‘liq. Aristokl Platon va René Descartes asarlarida tana va ruh alohida o‘rganilgan. Ruhning makoni sifatida tana falsafiy jihatdan ham “uy” vazifasini bajaradi” [2,15].

Tanani saqlash va unga g‘amxo‘rlik qilish – bu faqat jismoniy jarayon emas, balki inson o‘zini anglashining bir qismi. Falsafa tanani ruhiy va ma‘naviy tajribalar maydoni sifatida ko‘radi [3,35].

Sharq falsafasida Vatan va makon ko‘pincha muqaddas tushunchalar sifatida qabul qilinadi. Uy qurish - bu Vatan tuyg‘usining kichik modelini yaratishdir. Vatanni sevish va unga xizmat qilishni inson qalbida muqaddas joyni saqlash bilan tenglashtirgan.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, uy qurish va tanaga makon yaratish insonning Vatan tuyg‘usini kuchaytiradi va uning ma‘naviy, madaniy hamda jismoniy uyg‘unligiga xizmat qiladi. Shu bois, shaxsiy makon va umumiy Vatan o‘rtasidagi aloqani mustahkamlash hayotda barqarorlik va farovonlikni ta‘minlaydi.

Jenni Erpenbekning “Makon istab” asarida “o‘lka” so‘zi 6 marta qo‘llanilgan


Ho‘l bo‘lgan poyabzalida sovqotib ketgani, nihoyat bir tayoqqa qo‘li etganini, shu tarzda bir amallab suvdan chiqqani hamon yodida, endi esa biroz qo‘rquvda, Berlindan uzoqdagi bu o‘lkalarda zarur bo‘lib qolsa, uni kim qutqaradi? [4, 69].

Das Rutschen und Balancieren, das Frieren in den naßgewordenen Schuhen und schließlich das Greifen nach hingehaltenen Händen, Leitern und Stöcken, besonders aber die Angst, daß sie aus Berlin hinaustreiben könnte, bevor es irgend jemandem gelänge, sie zu retten, hatten sie so erschöpf, daß sie, noch tropfend, in den Armen des Mannes einschlief, der sie zu den Eltern nach Haus trug.

Matnda berilgan tasvir personajning ijtimoiy, madaniy va geografik muhitdagi o‘zgaruvchan holatiga ishora qiladi. Unda “o‘lka” tushunchasi to‘g‘ridan-to‘g‘ri geografik va tashqi muhitni, “vatan” esa bevosita insonning ma‘naviy va ichki dunyosini aks ettiruvchi element sifatida qaralishi mumkin.

Demak, “o‘lka” hech qachon “vatan” ning ma‘naviy qiymatini to‘liq qamrab ololmaydi, chunki ularning vazifalari va ta‘silari bir-biridan butkul farqlidir.

“Zamin” so‘zi Hafiza Qo‘chqorova tomonidan o‘zbek tiliga tarjima qilingan Jenni Erpenbekning “Makon istab” romanida 7 marta qo‘llangani qayd etildi.



“... bu aziz zaminga o‘zini, o‘zligini, to‘qqiz yildan beri ko‘rmagan, bundan keyin ham ko‘ra olmaydigan bolalikdagi do‘stini shu zaminga qoldirib ketmoqda butun umrga. Biroq ko‘ngil rishtalari mag‘kam bog‘langanicha Aziz rishta ila VAQTni do‘sti qolajak JOYga bog‘laydi, bolaligi o‘tgan qoladi”

“Wie mit Schlingen band die Zeit den Ort dort fest, wo er war , band die Erde an sich selbst fest, und band sie an dieser Erde fest, band sie und den Kinderfreund, den sie schon über neun Jahre lang nicht mehr gesehen hatte, und dem sie wahrscheinlich nie wieder begegnen würde, für immer aneinander fest”” [5,134].

Xulosa. Demak, matnda qahramon o‘zining ma‘naviy tug‘ilgan joyi – zamin bilan xayrlashmoqda. Bu jarayonda u bolaligidagi do‘sti, vaqt va joy tushunchalariga ma‘naviy rishtalar orqali bog‘langan. Asosiy g‘oya

insonning o'tmishi, hozirgi holati va bu ikki tushunchaning bir-biriga ta'sirini yoritadi. "Zamin" bu yerda shaxsning ma'naviy qadriyatlari, o'zi tug'ilib o'sgan muhit va asosiy shaxsiyati ramzi sifatida berilgan. Qahramon ushbu zaminda o'zini va o'zligini qoldirmoqda – bu esa uning o'tmishiga bo'lgan hissiy bog'lanishini anglatib kelmoqda.

ADABIYOTLAR:

1. Jenny Erpenbeck *Heimsuchung*. – S30
2. Jenny Erpenbeck *Heimsuchung*. – S 95
3. Jenny Erpenbeck *Heimsuchung* -56
4. Jenny Erpenbeck *Heimsuchung* S 83,84
5. Jenny Erpenbeck *Heimsuchung* S 69
6. Jenny Erpenbeck *Heimsuchung* 70-71
7. *Platon 'un idealari bag'laminda descartes'in ruh-beden ikiligi'ning incelenmesi*, Zehra ETILLi, Sema ÖNALi, *Kirikkale University Journal of Social Sciences*. – B.15
8. <https://uza.uz/posts/539610>, Шарқ ва ғарб фалсафсида инсон маънавий-руҳий оламининг аналитик таҳлили
9. Tarj. H. Qo'chqarova. *Makon istab*. –Toshkent: "Nihol" nashriyoti. 69 bet
10. Tarj. H. Qo'chqarova. *Makon istab*. –Toshkent: "Nihol" nashriyoti. 178 bet